

MUZEYLAR ASOSCHISI G. V. PARFYONOVNING IBRATLI HAYOT YO'LIDAN LAVHALAR.

Qarshiyev Xikmatilla Quvvatovich

“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi

bo‘limi mudiri

Annotatsiya: mazkur maqolada muzeylar asoschisi G. V. Parfyonovning hayoti va ilmiy faoliyati yoritilgan. Muallif bir olimning hayoti haqidagi qaydlar bilan birga o‘sha davrdagi jarayonlar, muzeylarning tashkil topishi va bugungacha bo‘lgan qiyin jarayonlarni tasvirlagan. Tarixni o‘rganish va yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish ezgu ishlardan ekanligi sababli ham maqolani dolzarb deb hisoblash mumkin.

Kalit so‘zlar: Smolensk, Rachevka, Gakkovo, Birinchi jahon urushi, o‘lkashunoslik muzeyi, Sherobod, Sheroboddaryo arxeologik ekspeditsiyasi, M. N. Prjevalskiy, P. K. Kozlov, Sherobod.

Gavriil Vasilyevich Parfyonov 1897 yil 23 martda Smolenskda tug‘ilgan. Uning otasi Vasiliy Alekseevich kichik do‘kondor edi. Onasi Nadejda Iokimovna uy bekasi bo‘lgan va u erta vafot etganligi sababli, otasi ikkinchi marta uylangan. Parfyonov boshlang‘ich ta‘limni Smolensk viloyat gimnaziyasida olgan va u yerda atigi 3 yil o‘qigan. Bu qisqa fursat bo‘lsada, o‘qituvchilari uning kelgusidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini shakllantirishga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Gerbariylar, turli tosh va minerallar shuningdek, qadimiy buyumlar to‘plash orqali tarixiy-arxeologik va qadimiy muzeylar kolleksiyalarini to‘ldirishda faol ishtirok etdi. 1911 yilda u muzeyga ko‘plab qimmatli ashyolar topshirgani uchun Moskva arxeologiya institutining Smolensk filiali tomonidan esdalik medali bilan taqdirlandi. 1910-1912 yillarda Smolensk viloyatining Gakkovo qishlog‘i yaqinidagi paleontologik qazishmalarda ishtirok etdi. Bu ishlar 14-13 yoshli bola uchun havas qilsa arziydigan voqealardir. Keyinchalik, 1913 yilda Smolensk gubernyasida qisqa muddatli kooperativ kurslarida qatnashadi, 2 yildan so‘ng esa kechki buxgalteriya kurslarini tugatadi. Taxminan bir yil davomida u Butunrossiya Yer ishlari Ittifoqi homiyligida - askarlar do‘koni mudiri, tibbiy ovqatlanish punkti

mudiri, askarlar do'konlari instruktori kabi turli lavozimlarda ishlaydi. Buning ortidan Birinchi jahon urushi voqealari sodir bo'ladi. 1916 yil may oyida xizmatga chaqirilgan Parfyonov bir yarim yil davomida armiya safida bo'lgan. 1918 yil mart oyida demobilizatsiya qilingan va tug'ilgan joyiga qaytib, u bir necha oy iste'molchilar jamiyatining savdo agenti bo'lib ishlaydi. Ammo arxeologiyaga bo'lgan qiziqish hamisha unga tinclik bermaydi. Shu orada geolog A. P. Navlov va paleontolog M. V. Navlova (ikkalasi ham keyinchalik akademiklar) rahbarligida mamont va karkidon qoldiqlarini qazishda qatnashadi. 1919 yildan tinch hayot boshlanganida Yuxnov viloyatida kooperativ bo'lim instruktori vazifasida ishlaydi. 1920 yilda Smolenskga qaytib, Rachevkada tashkil etilgan o'lkashunoslik to'garagiga kiradi. 1919 yilda Rachevkada kutubxona tashkil etiladi. G. V. Parfyonov tomonidan ushbu maskanga 800 jild kitob sovg'a qilib beriladi. O'sha paytda yosh Gavriil o'rtoqlari bilan mahalliy hudud yoki o'lka tarixini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Gavriil Parfyonov o'z bilimini muttasil oshirib borishga faol harakat qiladi. 1918 yilda u Moskva arxeologiya institutining Smolensk bo'limi erkin tinglovchisi bo'ladi, Shanyavskiy nomidagi Moskva xalq universitetida alohida ma'ruzalarga vaqti-vaqti bilan qatnashib turadi. Ushbu kurslarning barchasi va individual ma'ruzalar jiddiy va mukammal arxeologik ta'lim bera olmasada, Parfyonov bu kamchiliklarni o'z ustida tinimsiz ishlash bilan to'ldirib boradi.

1918 yil oktyabr oyida Parfyonov Smolensk harbiy komiteti moliya bo'limida xizmat qiladi, dekabr oyida esa, chaqiruvga ko'ra, qizil armiyaga ketadi. U Janubiy frontga, Balashov shahriga, sanitariya maktabiga yuboriladi. Parfyonov bir muncha vaqt sanitar, ammo 1919 yil may oyida, tif kasalligiga chalingandan keyin, uzoq muddatli ta'tilga chiqishga majbur bo'ladi va natijada Smolensk oziq – ovqat qo'mitasiga ishga kiradi.

1920 yil mart oyida Parfyonov yana armiyaga chaqiriladi va u 1921 yil avgust oyigacha G'arbiy frontning oziq-ovqat ta'minoti organlarida kanselyariya ishlarini bajaradi. Nihoyat, Smolenskka qaytib kelgan Parfyonov, arxeologiya sohasida ishlashni orzu qilsada, o'lka tarixini ancha o'rganganiga qaramasdan

turli tashkilotlarda 1924-yilgacha iqtisodiy lavozimlarda ishlashga majbur bo'ladi. 1923-yilda Rachevskadagi kutubxona qoshida yosh tarixchilar to'garagi (keyinchalik klub) tashkil etadi, ular to'plagan eksponatlardan muzey (1927-yildan viloyat o'lkashunoslik jamiyati muzeyi) tashkil etiladi.

Kutubxonalardan birida u o'lkashunoslik to'garagini tashkil etadi, lekin bu ishi uzoqqa bormaydi. 1926 yilda Smolensk o'lkashunoslik jamiyatini tashkil etishda ishtirok etadi, keyinchalik uning boshqaruvi a'zosi bo'ladi. Jamiyat rahbarligida kichik arxeologik-etnografik ekspeditsiyalar tashkil etiladi va qahramonimiz ularda ishtirok qiladi. O'sha vaqtga Parfyonov oilali edi. Uning rafiqasi Sara Danilovna umrining oxirigacha unga sodiq umr yo'ldoshi bo'lib qoladi. 1924 yilda uning Mayya ismli qizi tug'iladi. Albatta oilali odamga osonmas, ya'ni yoshlikdagi barcha orzularga erishish ilojisiz deyish mumkin. Shunday bo'lsada, bo'layotgan voqealar uning hayotida kelgusidagi umri yo'nalishini belgilashda muhim o'rin tutadi.

1927 yil oktyabr oyida Parfyonov yaxshi pul topishi mumkin bo'lgan xo'jalik xizmat faoliyatini yig'ishtiradi va o'zining qadrdon Smolensk o'lkashunoslik muzeyiga texnik xodim bo'lib ishga kiradi.

1929-yil yozida R. V. Tarasenko boshchiligida Dneprning boshlanishidagi ekspeditsiyada qatnashadi, minerallar to'plamlarini, illyustrativ materiallarni to'pladi, afsonalar va rivoyatlarni yozib oldi va guberniya muzeyiga topshirdi. 1929 yilda Parfyonov hayotida katta burilish yuz beradi, ya'ni u taniqli olimlardan biri, M. N. Prjevalskiyning safdoshi, mashhur sayyoh, Markaziy Osiyo bo'yicha yirik tadqiqotchi Pyotr Kuzmich Kozlov bilan tasodifan uchrashib qoladi. U Prjevalskiy, Kozlovlar ishi bilan tanish, ularning asarlari orqali sharqqa oshiq bo'lib qolgan edi. Parfyonov hatto o'z qaydlarining birida “- Smolensk muzeyida ishlagan paytimda M. N. Prjevalskiyning shaxsiy kutubxonasi bilan tanishganman... Xayolan Sharqqa sayohat qilar, biroq sirli Tibet o'lkalariga emas, balki O'rta Osiyoga tushib qolishni orzu qilar edim. Ana shunday kunlarning birida Smolenskda Pyotr Kuzmich Kozlov bilan uchrashib qoldim...”

1930 yil may oyida Parfyonov o'sha paytda O'zbekiston poytaxti va O'rta Osiyoning "arxeologik hayot" markazi bo'lgan Samarqandga keladi. U Samarqand Markaziy davlat muzeyiga ilmiy-texnik xodim sifatida ishga kirdi, ammo bir muncha vaqt o'tgach u muzeyning ilmiy kotibi lavozimida ishladi. P. K. Kozlovning maslahatiga amal qilib, Samarqandda Parfyonov V. L. Vyatkin bilan tanishadi. Vyatkin o'sha davrda O'rta Osiyoning ilmiy-tarixiy doiralarida keng tanilgan va juda obro'li shaxs bo'lgan. 1930 yilning yozida Vyatkin tomonidan Afrosiyobda olib borilgan qazishmalarda ishtirok etgan Parfyonov 1931 yil iyul – sentabr oylarida O'zbekistonning janubidagi Boysun, Sherobod, Sariosiyo tumanlaridagi yaylov yerlarini o'rganish bo'yicha UzGosNII va O'zgoszemtrest ekspeditsiyasining ishida ishtirok etdi, bu arxeolog uchun tom ma'noda baxt edi. Qadimgi Termiz arxeologlar tomonidan "O'rta Osiyo Pompeyi" nomini olganligi ham bekorga emas edi. Uzkomstaris bilan kelishgan holda, G. V. Parfyonov qisqa muddatli safari davomida arxeologik rekognitsirovka o'tkazadi: mahalliy aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rov davomida u bir nechta qoya rasmlari punktlarini ro'yxatdan o'tkazdi, eng qadimgi odamlarning Machay g'ori to'xtash joyi ochildi va birinchi marta tekshirildi. Ushbu sayohat Parfyonovning keyingi hayoti uchun juda muhim edi.

Arxeologik ishlarni amalga oshirish uchun G. V. Parfyonov Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida yashaydi, dastlab tuman kolxoz uyushmasi iqtisodchisi, 1933 yil yanvar oyidan esa yer ishlari bo'yicha mutaxassis bo'ladi. Sherobodda Parfyonov o'zining ilmiy va tashkiliy salohiyatini to'liq namoyish etadi. Ushbu tuman markazida ikki yil davomida u ko'plab qadimiy tepaliklarni o'rgandi, ilgari ko'pchilikka noma'lum bo'lgan Hazrati Iso at-Termiziy maqbarasini aniqladi va o'rgandi, tumanning arxeologik xaritasini tuzdi. Shuningdek, u tuman o'lkashunoslik byurosini, Sherobod tuman o'lkashunoslik muzeyini tashkil etdi, uning jamoatchilik asosidagi birinchi direktori bo'ldi. Kichik shaharcha respublikadagi o'lkashunoslik ishlarining markazlaridan biriga aylandi.

1933 yilda Gavriil Vasilyevich Parfyonov Termiz shahriga ishga taklif qilindi. Unga 1933 yil 7 noyabrda ochilgan Surxondaryo tumanlararo ko'rgazmasini tashkil etish vazifasi topshirildi. Bu ishlar Termiz o'lkashunoslik muzeyini tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Termiz o'lkashunoslik muzeyi 1934 yil 1 yanvarda ish boshladi va shu yilning 1 mayida tashrif buyuruvchilar uchun o'z eshiklarini ochdi.

Umuman, qahramonimizni oldinda avlodlar uchun qiladigan muhim davomiy ishlar kutar edi.

Adabiyotlar:

1. Юрий Флыгин. Не в таинственный Тибет, а в Среднюю Азию.
2. А. Маматказина Он сохранил для нас историю края...Заря Сурхана
30.07.2020
3. <https://www.smolensk-museum.ru> Гавриил Васильевич Парфенов (1897-1967) – создатель Рачевского музея в Смоленске 16.03.2022
4. <https://www.Gaso-smolensk.ru> Ф.Р-916. Парфенов Гавриил Васильевич – археолог-краевед.1867-1966.
5. <https://vesti.uz>. Хранитель древностей термеза. 23.03.2012